



“O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TABIIY RESURSLARI: NEFT KO‘MIR VA URAN ZAHIRALARI SALOHİYATI”

Abdurazzoqov Hojiakbar Alisher o‘g‘li

Namangan davlat universiteti

Iqtisodiyot fakulteti 70310102-Iqtisodiyot

2-kurs magistranti

Namangan, O‘zbekiston

e-mail: hojiakbarabdurazzaqov8@gmail.com

ANNOTATION: *This study highlights the natural resource potential of the Republic of Uzbekistan, their role in the country’s economic development, and issues related to their rational use. The research analyzes the current state of natural resources such as oil, coal, and uranium reserves. In addition, recommendations and proposals are provided regarding sustainable use of natural resources, reducing environmental problems, and modern approaches to resource management. The topic reveals opportunities for ensuring socio-economic development through the efficient utilization of Uzbekistan’s natural potential.*

KEYWORDS: *Natural resources, electricity, oil reserves, coal deposits, uranium extraction, non-renewable resources, thermal power plant (TPP), hydroelectric power plant (HPP), nuclear power plant (NPP), energy supply, green energy, efficient use of resources.*

АННОТАЦИЯ: *В данной работе рассматривается природно-ресурсный потенциал Республики Узбекистан, его роль в экономическом развитии страны, а также вопросы рационального использования природных ресурсов. В исследовании проводится анализ современного состояния запасов нефти, угля и урана. Кроме того, представлены рекомендации и предложения по устойчивому использованию природных ресурсов, снижению экологических проблем и применению современных подходов к управлению ресурсами. Тема*



раскрывает возможности обеспечения социально-экономического развития посредством эффективного использования природного потенциала Узбекистана.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Природные ресурсы, электроэнергия, нефтяные запасы, угольные месторождения, добыча урана, невозобновляемые ресурсы, тепловая электростанция (ТЭС), гидроэлектростанция (ГЭС), атомная электростанция (АЭС), энергоснабжение, «зелёная» энергетика, эффективное использование ресурсов.

ANNOTATSIYA: Ushbu ishda O'zbekiston Respublikasining tabiiy resurslar salohiyati, ularning mamlakat iqtisodiy rivojlanishidagi o'rni va ulardan oqilona foydalanish masalalari yoritiladi. Tadqiqotda tabiiy resurslardan neft, ko'mir va uran zaxiralari hozirgi holati tahlil qilinadi. Shuningdek, tabiiy resurslardan barqaror foydalanish, ekologik muammolarni kamaytirish va resurslarni boshqarishning zamonaviy yondashuvlari bo'yicha taklif va tavsiyalar beriladi. Mavzu O'zbekistonning tabiiy potensialidan samarali foydalanish orqali iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlash imkoniyatlarini ochib beradi.

KALIT SO'ZLAR: Tabiiy resurslar, Elektr energiyasi, neft zaxiralari, ko'mir konlari, uran qazib olish, qayta tiklanmaydigan resurslar, issiqlik elektr stansiyasi (IES,) gidro elektr stansiyasi (GES), atom elektr stansiyasi (AES), energiya ta'minoti, yashil energetika, resurslardan samarali foydalanish.

KIRISH. Bugungi kunda elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyojning ortib borishi mamlakatlar oldida energetik xavfsizlikni ta'minlash, mavjud resurslardan samarali foydalanish va yangi energiya manbalarini izlash kabi dolzarb vazifalarni yuzaga keltirmoqda. O'zbekiston Respublikasida elektr energiyasi ishlab chiqarishning asosiy qismi tabiiy resurslarga — neft, gaz, ko'mir va uranga tayanadi. Mamlakatdagi mavjud Issiqlik Elektr Stansiyalari (IES), Gidro Elektr Stansiyalari (GES) hamda istiqboldagi Atom Elektr Stansiyasi (AES) loyihalari aynan shu xomashyolardan foydalanadi. Ayni paytda O'zbekistonda faol AES mavjud



bo'lmasa-da, Uzatom va Rossiyaning Rosatom agentliklari hamkorligida Jizzax viloyatida atom elektr stansiyasi qurilishi bo'yicha loyihalashtirish jarayonlari boshlangan.

O'zbekistonda neft, ko'mir va uran kabi qayta tiklanmaydigan resurslarning sezilarli miqdordagi zahiralar mavjud bo'lib, ularning iqtisodiyotdagi ahamiyati beqiyosdir. 2025-yil boshidagi ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatning tasdiqlangan neft zaxiralari 594 million barrelni tashkil etadi. Shuningdek, 2 milliard tonnaga yaqin ko'mir zaxiralari va 132 ming tonnadan ortiq uran resurslari mavjud ekani aniqlangan. Biroq bu resurslarning tabiatan cheklanganligi, yil sayin qazib olish hajmining o'sishi va energiya iste'molining ko'payib borayotgani kelajakda ularning tugab qolish xavfini kuchaytiradi.

Shu nuqtai nazardan, mavjud tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ularning zaxirasini tejash va energetika sohasini diversifikatsiya qilish zarurati yanada ortib bormoqda. Xususan, yashil energetikaga — quyosh, shamol, gidro va boshqa qayta tiklanuvchi manbalarga bosqichma-bosqich o'tish barqaror rivojlanishning muhim omillaridan biridir. Ushbu maqolada O'zbekistonning asosiy tabiiy resurslari bo'yicha mavjud zahiralar, qazib olish darajalari, ularning taxminiy yetish muddati hamda resurslardan samarali foydalanishning istiqbollari yoritiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. O'zbekiston bo'yicha so'nggi yillarda chop etilgan statistik ma'lumotlar neft, ko'mir va uran qazib olish hajmlarining yillik o'zgaruvchanligini, energetikaga bo'lgan ichki ehtiyojning ortib borayotganini va mavjud kon zaxiralarining qayta baholanayotganini ko'rsatadi. Bir qator ilmiy ishlarda Uzatom va Rosatom hamkorligidagi AES loyihasi, milliy energetika tizimining modernizatsiyasi hamda yashil energetika salohiyatining kengayishi bo'yicha tahlillar o'rin olgan. Tadqiqotlar shuningdek, O'zbekiston hududida 295 dan ortiq neft va gaz konlari, 2 milliard tonnaga yaqin ko'mir zaxiralari va 130 ming tonnadan ortiq uran resurslarining mavjudligi, ularning hozirgi qazib olish sur'atlari bilan taxminiy yetish muddatlari haqida aniq ma'lumotlar beradi.



Ilmiy adabiyotlarda qayta tiklanmaydigan resurslarning tugashi masalasi bilan birga, ulardan samarali foydalanish strategiyalari, energiya samaradorligini oshirish texnologiyalari hamda ekologik barqarorlik tamoyillari ham keng yoritilgan. Shu asosda, O'zbekistonda yashil energetika ulushini oshirish, quyosh va shamol elektr stansiyalarini barpo etish bo'yicha istiqbolli yo'nalishlar ham ko'rsatib o'tiladi.

Mazkur tadqiqotda quyidagi ilmiy-uslubiy metodlar qo'llanildi: Statistik tahlil metodi Neft, ko'mir va uran bo'yicha mavjud zaxiralar, yillik qazib olish hajmlari va ularning ekspluatatsiya muddati raqamlar asosida tahlil qilindi. 2023–2024 yillardagi qazib olish ko'rsatkichlari solishtirildi. Qiyosiy tahlil metodi O'zbekistonning tabiiy resurslar salohiyati boshqa davlatlar tajribasi bilan bilvosita solishtirildi. IES, GES va AES energiya ishlab chiqarishdagi o'zaro farqlari va samaradorligi tahlil qilindi. Ekstrapolyatsiya (proгноzlashtirish) metodi mavjud qazib olish hajmlaridan kelib chiqib, resurslarning qancha muddatga yetishi taxmin qilindi. Zaxiralarning kamayish sur'ati bo'yicha yaqin istiqboldagi energetika holati prognoz qilindi. Tizimli yondashuv O'zbekiston energetika tizimi bir butun kompleks sifatida ko'rib chiqildi: resurslar qazib olish energiya ishlab chiqarish iste'mol zanjiri o'rganildi. Yashil energetika joriy etishning butun tizimga ta'siri baholandi.

NATIJALAR. Malumki, elektr energiyasini ishlab chiqarishning bir necha yo'llari mavjud bo'lib, mamlakatimizda asosan tabiiy resurslar hissobiga elektr energiyasi ishlab chiqariladi. Ulardan keng foydalaniladigan IES (Issiqlik Elektr Stansiyasi), GES (Gidro Elektr stansiyasi) va AES (Atom Elektr Stansiyasi). Hoirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasida AES (Atom Elektr Stansiyasi) mavjud emas, ammo Uzatom (O'zbekiston Atom energiyasi agentligi) va Rosatom (Rossiya Atom energiyasi agentligi) hamkorligida, O'zbekiston Respublikasi Jizzax Viloyatida AES (atom elektr stansiyasi) qurilishi bo'yicha bir nechta loyihalar rejalashtirilgan



va ilk bosqichlar boshlangan.¹ Yuqorida keltirib o'tilgan energiya stansiyalarida energiya ishlab chiqarish uchun tabiiy resurslardan neft (gaz), uran, ko'mir va boshqa nematlardan foydalaniladi. Bu turdagi resurslar qayta tiklanmaydigan resurslar sirasiga mansubligi sabab, ularning zaxiralari vaqt o'tishi bilan tugab boradi. O'zbekiston Respublikasida ~295 ta neft va gaz konlari mavjud bo'lib,² 2025-yilning yanvardagi holatiga ko'ra, mamlakatimizning tasdiqlangan neft zaxiralari hajmi **594 million barrel** deb baho berilgan. 2024 yilda respublikamizning neft qazib olish salohiyati taxminan ~44,834 barrel/kun bo'lgan.³

2023 yilda, O'zbekistonda 44 yirik ko'mir koni mavjudligi va ushbu konlardagi komir zahiralarini taxminan 2 mlrd tonna tashkil etadi ma'lum qilingan⁴ va 2024 yilda ~6.7 million tonna ko'mir qazib olingan.⁵

Mamlakatimizda uran zaxiralari va uni qazib olish mavjud va respublikamiz jahonda uran yetkazib beruvchi davlat hissoblanadi. O'zbekistondagi identifikatsiyalangan resurslar yig'indisi taxminan 132,300 tonnani tashkil etadi.⁶ 2015–2024 oralig'ida bo'lgan davrda yillik ishlab chiqarish 2,385–4,000 t bo'lgan 2023–2024 yillar oralig'ida yiliga 3,500–4,000 t ga oshgan.⁷

¹ Kun.uz, 2024-05-27: 'Uzatom and Rosatom prepare general contract for nuclear power plant construction in Uzbekistan'. URL: https://www.kun.uz/en/news/2024/04/30/uzatom-and-rosatom-prepare-general-contract-for-nuclear-power-plant-construction-in-uzbekistan?utm_source

² Kun.uz — "Information provided on ownership of oil and gas fields in Uzbekistan", 14 fevral 2023. [Kun.uz](https://kun.uz)

³ Trend / EIA report (2025) — 'Uzbekistan reports oil reserves volume as of January 2025' (594 million barrels). URL: <https://trend.az> (see report Feb 10, 2025).

⁴ Live Kun.uz, 2023-12-27 — "Uzbekistan increases coal mining" URL:

https://live.kun.uz/en/news/2023/12/27/uzbekistan-increases-coal-mining?utm_source

⁵ Uzbekcoal / Daryo / Trend news (2024) — Uzbekcoal produced ~6.7 million tonnes in 2024. (news reports Jan 2025).

⁶ World Nuclear Association / Kun.uz (various summaries) — Uzbekistan uranium resources cited (~132,300 t U) and World Nuclear Association country profile

⁷ World Nuclear Association production table and Navoiyuran reports (annual uranium production ~3,500–4,000 t U in recent years).



O‘zbekistonning asosiy tabiiy resurslari bo‘yicha zahiralalar, qazib olish ko‘rsatkichlari va ularning taxminiy yetish muddati

№	Tabiiy resurslar nomi	Jami topilgan resurslar zaxiralari	2024 yilda qancha qazib olinishi	Taxminiy qancha muddatga yetishi
1	Neft	594 million barrel	~44,834 barrel/kun	~36.3 yil
2	Ko‘mir	2 mlrd tonna	6.7 million tonna	~298 yil
3	Uran	132,300 tonna	3,500–4,000 t	~33 yil

O‘zbekiston Respublikasining asosiy tabiiy resurslari bo‘yicha mavjud zaxiralalar, 2024-yilgi qazib olish hajmi va qancha muddatga yetishi mumkinligi haqida ma’lumot beradi.

Ushbu jadvalda ketirilgan ma’lumotlar yana boshqa konlarning topilishi va bu mahsulotlarning istemol hajmining ko‘payib hamda pasayishi sababli doimiy tarzda o‘zgarib tuzadi. Real muddat qazib olish hajmining o‘zgarishi, yangi konlarning aniqlanishi yoki geologik qayta baholash natijasida o‘zgarishi mumkin.

Ushbu jadvaldan ma’lumki, neft va uran tabiiy resurslari bo‘yicha qazib olish sur‘atlari yuqori bo‘lgani sabab, mavjud zaxiralarning ekspluatatsiya muddati ko‘proq cheklanadi.

Ushbu turdagi resurslarni saqlab qolish energetika sohasida ko‘mir va gazdan foydalanish orqali olinadigan elektr energiyasini o‘rniga yashil energetika tarmog‘iga bosqichma-bosqich o‘tilsa bu tabiiy resurslar zaxiralari saqlab qolinishi mumkin.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston Respublikasida elektr energiyasi ishlab chiqarish jarayoni asosan qayta tiklanmaydigan tabiiy resurslarga – neft, gaz, ko‘mir va uranga tayanadi. Mamlakatda mavjud bo‘lgan neft, ko‘mir va uran zaxiralari iqtisodiyotning barqaror ishlashi uchun muhim manba bo‘lsa-da, ularning cheklanganligi kelajak energetika xavfsizligi bilan bog‘liq muammolarni yuzaga keltiradi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, neft va uran zaxiralari yuqori qazib olish sur‘atlari sababli nisbatan qisqa muddatda tugashi mumkin.



Ko‘mir zaxiralari esa uzoq muddatga yetishi taxmin qilinayotgan bo‘lsa-da, ekologik omillar uni keng miqyosda qo‘llashni cheklaydi.

Shu bois energetika tizimini modernizatsiya qilish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini — quyosh, shamol, gidroenergiya va boshqa “yashil energetika” texnologiyalarini jadal rivojlantirish strategik ahamiyat kasb etadi. Bu nafaqat tabiiy resurslarni tejashga, balki ekologik yuklamani kamaytirishga va energetika mustaqilligini mustahkamlashga xizmat qiladi. AES qurilishi bo‘yicha rejalashtirilayotgan loyihalar ham energetika tizimining diversifikatsiyasiga hissa qo‘shishi mumkin.

Umuman olganda, mamlakat tabiiy resurslar salohiyatidan oqilona foydalanish, qazib olish hajmlarini samarali boshqarish va resurslarni tejovchi yangi texnologiyalarni joriy etish orqali iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishni barqaror davom ettirish imkoniyatiga ega. Kelajak energetika siyosatining asosiy maqsadi — mavjud zaxiralarni saqlab qolgan holda, qayta tiklanadigan energiya ulushini kengaytirishdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1.Kun.uz, 2024-05-27: 'Uzatom and Rosatom prepare general contract for nuclear power plant construction in Uzbekistan'.

URL:https://www.kun.uz/en/news/2024/04/30/uzatom-and-rosatom-prepare-general-contract-for-nuclear-power-plant-construction-in-uzbekistan?utm_source

2.Kun.uz — *“Information provided on ownership of oil and gas fields in Uzbekistan”*, 14 fevral 2023. [Kun.uz](https://www.kun.uz)

3.Trend / EIA report (2025) — 'Uzbekistan reports oil reserves volume as of January 2025' (594 million barrels). URL: <https://trend.az> (see report Feb 10, 2025).

4.Live Kun.uz, 2023-12-27 — *“Uzbekistan increases coal mining”* URL: https://live.kun.uz/en/news/2023/12/27/uzbekistan-increases-coal-mining?utm_source

5.Uzbekcoal / Daryo / Trend news (2024) — Uzbekcoal produced ~6.7 million tonnes in 2024. (news reports Jan 2025).



6. World Nuclear Association / Kun.uz (various summaries) — Uzbekistan uranium resources cited (~132,300 t U) and World Nuclear Association country profile World Nuclear Association production table and Navoiyuran reports (annual uranium production ~3,500–4,000 t U in recent years).